

ularning atrofini o'rganish, saqlash va turistlarga taqdim etish orqali iqtisodiy foyda keltiradi.

Diniy va ma'naviy ahamiyat: Sakral geografiya davlatlarning diniy madaniyatini va ma'naviyatini aks ettiradi. Muqaddas joylar ko'plab diniy marosimlar, tadbirlar va an'anaviy ibodatlar markazi sifatida xizmat qiladi. Bu joylar odatda insonlar uchun ma'naviy va ruhiy tozalanish manbai bo'lib, ularning ichki dunyosini boyitadi. Misol uchun, Hindistondagi Varanasi, Tibetdagi Potala saroyi yoki Xristianlarning Quddusdagi muqaddas joylari – bular diniy ibodatlar va marosimlar uchun markaz hisoblanadi.

Diniy va madaniy tolerantlikni kamaytirish: Sakral geografiya turli diniy an'analar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Muqaddas joylar ko'pincha turli dinlarga mansub odamlarni birlashtiradigan markazlar bo'ladi. Masalan, Quddus shahri, uning turli diniy va madaniy tarixiy qatlamlari bilan, yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas joy hisoblanadi. Bu joylar o'zaro muloqot va dialog uchun platforma yaratadi.

Xalqaro hamkorlik va tinchlikni targ'ib qilish: Sakral geografiya davlatlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishda yordam beradi. Diniy va madaniy obidalarini saqlash borasidagi xalqaro hamkorlik, davlatlar

o'rtasida diplomatik aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, UNESCO tomonidan jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan sakral joylar o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi va global miqyosda dinlararo tinchlikka hissa qo'shadi.

Xulosa. O'zbekistonda sakral geografiyani rivojlantirish, ayniqsa, diniy obidalarini saqlash va turizm salohiyatini kengaytirish masalalari bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Mamlakatda sakral geografiyaning rivojlanish istiqbollari yuqori bo'lib, ularning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishdagi o'rni beqiyosdir. Sakral geografiyaning rivojlanishiga ko'rsatilgan e'tibor, mamlakatning tarixiy merosini saqlash va yangi avlodlarga yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli, O'zbekistonning sakral geografiyasini saqlash va rivojlantirishga oid sa'y-harakatlar jahon miqyosida o'zining o'rniga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, sakral geografiya dunyo davlatlarida diniy, madaniy, iqtisodiy va diplomatik sohalarida katta ahamiyatga ega. Bu soha nafaqat obidalarini saqlash, balki jamiyatlarning barqaror rivojlanishini, xalqaro hamkorlikni va turizmni rivojlantirishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Завгородний Ю.Ю. Сакральная география и феномен паломничества: тайное и явное (взгляд из советской периферии). Аиом – асем орг//завгородний хттп://турелигиоус.ком.уа. – Дата доступа: 28.09.2013.
2. Шаблий О. Общественная география: теория, история, страноведческие студии. – М.: “Комета”, 2009. –С. 324.
3. Abdullayev S., Safarov I., Sakral-geografik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari. “Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro-ilmiy amaliy konferensiya. 2024. 25.10.
4. Шуканов П., Шуканова А. Сакрально-научови основи освитного процессу. / Имидж с учасного педагога. – Полтава: 2012. №3 (122). -С. 3-6.
5. Safarov I.B., Pirnazarov I.Sh. O'zbekistonda sakral geografiyani rivojlantirish istiqbollari. // Экономика и социум. 2025. №. 2-1 (129). 510-513-b.

REZYUME. Ushbu maqolada O'zbekistonda sakral geografiyaning rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Sakral obidalarini saqlash va rivojlantirish, turizmni kengaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются перспективы развития сакральной географии в Узбекистане. В статье также рассматриваются вопросы сохранения и развития сакральных памятников, развития туризма, развития международного сотрудничества.

SUMMARY. This article analyses the prospects for the development of sacred geography in Uzbekistan. The article also covers the issues of preserving and developing sacred monuments, expanding tourism, and developing international cooperation.

ShAHRISABZ VA MAYDANAK BALAND TOG' TURISTIK MARKAZINING EKOTURISTIK IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Q.S.Yarashev – *geografiya fanlari doktori, professor*

O.B.Badalov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

B.B.Yusupov – *tadqiqotchi*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tog' ekoturizmi, tabiiy sharsharalar, o'rmon, daryo, g'or, ko'l, dam olish maskan va sanatoriyalar.

Ключевые слова: горный экотуризм, природные водопады, леса, реки, пещеры, озера, дома отдыха и санатории.

Key words: mountain ecotourism, natural waterfalls, forests, rivers, caves, lakes, holiday homes and sanatoriums.

Kirish. Mamlakatimizda 2025 yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyatlar berildi. Ushbu dasturni hayotga tadbiiq etishda turizm, dam olish maskanlari va sanatoriyalarni rivojlantirishda ulkan infratuzilma ishlarni amalga oshirish maqsadida respublikamiz tog' va tog'oldi hududlarida

rekreatsiya va turizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud” deb ta'kidlaganlar [1]. Jumladan, Qashqadaryo viloyati ham o'zini ekoturizm sohasidagi strategik, ichki turizm hajmini

keskin ko‘paytirish, sayyohlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub‘ektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilganini ko‘rishimiz mumkin [11].

Binobarin, Shahrisabz shahrini 2024-yilda, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)ning Turizm vazirlarining IV yig‘ilishi yakuniga ko‘ra turizm poytaxti deb tanlagani bejizga emas. Shaharning turizm salohiyati butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Jahon tajribasida ham ekologik turizmni rivojlantirishda tabiiy yodgorliklari hamda qo‘riqxonalar va tabiiy manzarali hududlarga alohida e‘tibor qaratilgan [13]. Shu bilan birgalikda alohida hududlarning ekoturistik imkoniyatlarini baholash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmini takomillashtirishning komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda [4].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Turizm va rekreatsiya geografiyasining ilmiy-nazariy masalalari bo‘yicha respublikamizda M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.S.Soliyev, M.R.Usmonov, M.M.Muhamedov, M.Hoshimov, A.N.Nigmatov, A.A.Rafiqov, A.Yakubov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turizm va rekreatsiyaning turli masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shuningdek, N.T.Shamuratova, A.Zokirov, O.X.Hamidov, R.Usmonova, S.B.Abbasov, Q.S.Yarashev, Sh.Xolmurodov, X.Jumayev, O‘.B.Badalov, J.Yu.Xasanov va boshqalarni ilmiy tadqiqot ishlarida ham kengroq yoritilgan.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati turizmini ilmiy tadqiq qilishda Qashqadaryo viloyati landshaftlarni rekreatsiya maqsadida baholash bo‘yicha R.Usmonova [6] hamda Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha X.Jumayevlar tomonidan o‘ganilgan hamda kompleks baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [5].

Natijalar va muhokama. Mamlakatimiz hududlarida ekoturizmni rivojlantirishda nafaqat ona tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish va qiziqitirish, ular uchun iqtisodiy-ijtimoiy sharoitini yaxshilash hamda aholini ish bilan ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [8]. Jumladan, Hisor tog‘larini janubiy-g‘arbiy qismlarini bebaho tabiati, shifobaxsh mineral suvlari, toza iqlim sharoiti va sport-sog‘lomlashtirish joylari ekoturistik imkoniyatlarning yaratishda qulay hisoblanadi [4]. Shu sababli ushbu hududlarda ekoturizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ekologik turizm sohasida yangi ekoturistik yo‘nalishlar ochish imkoniyatlari o‘rganilmoqda. Ammo, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro harakatlar dasturini qabul qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [10].

Hozirgi vaqtda respublikamiz Tog‘ va tog‘oldi hududlari ekoturizmini istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishda eng avvalo hududlarda tinchlik-osoyishtalikni ta‘minlanganligi, tabiiy-iqlim sharoiti, tarixiy-madaniy obidalaru butun insoniyatning boyligi bo‘lgan osori-atiqalar, qadriyat va an‘analarning mavjudligi kabi jihatlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, betakror o‘simlik, hayvonot olamini asrash hamda ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida

ko‘plab milliy dasturlar va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda [5].

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, prezidentimiz Qashqadaryoga 2023- yil 28- noyabrdagi tashrifi davomida viloyatda yilning to‘rt mavsumida turistlarni jalb qilish uchun salohiyat borligi va undan samarali foydalanilmayotgani ta‘kidlagan edilar. Bu borada, xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Shahrisabz tumanidagi “Miraki”, “Amir Temur”, “Uloch” va “Polmon” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi umumiy maydoni 240 gektar bo‘lgan yer uchastkasida 450 million dollarli qo‘shimcha investitsiyalar yo‘naltirildi. Natijada bu yilgi (2025-yil) mavsumda Shahrisabz tumanidagi Miraki hududida jami 350 o‘rinli mehmonxona ishga tushadi va buning natijasida 220 ta ish o‘rni yaratiladi. Bir vaqtning o‘zida 1 ming 200 dan ortiq sayyohga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi [13].

Shahrisabzni o‘zida yiliga qo‘shimcha 500 milliard so‘m tushum kutilayapti, 5 mingta yangi doimiy ish o‘rni paydo bo‘ladi. 108 mlrd so‘m hisobiga 126 km yo‘l, 5 km kanalizatsiya, 10 km ichimlik suvi, 5 km elektr tarmog‘i ta‘mirlandi. Ayni paytda Miraki mahallasida qariyb 11 gektarli bo‘sh turgan yer maydonlarida aholi va sayyohlar sayr qilishi uchun “Oqsuvdaryo” o‘zani bo‘ylab 10 kilometr uzunlikda piyoda va veloyo‘laklar qurilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan dengiz sathidan 1 ming 200 metr balandlikda dam olish majmuasi, osma ko‘prik va ziplaynlar qad rostlamoqda. Zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va turizm infratuzilmasi ob‘ektlari qurish reja asosida amalga oshirilmoqda. Tabiiy landshaftlarning shakllanishi, o‘zgarishi va yangi tiplarining paydo bo‘lishi kelajakda tog‘ va tog‘oldi turizmini rivojlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [7].

Bugungi kunda viloyatni tog‘ va tog‘ oldi mintaqalari xilma-xil ekoturistik ob‘ektlarga boyligi bilan ajralib turadi [9]. Dam olish va ekoturizmni rivojlantirishda hududni tabiiy resurslarni kompleks baholash, ekoturistik marshrutlarni loyihalash va ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi hamda istiqbolli ekoturistik marshrutlar ajratishda ob‘ektiv baholash imkoniyatini yaratildi. Shu sababli ushbu hududlarga yaqin bo‘lgan joylarda quyidagi ekoturistik marshrutlar ishlab chiqildi:

- Siyob qishlog‘i - Miroqi shaharchasi (Qorasuv daryosi bo‘ylab);
- Hisorak - Sayat - Suvtushar qishloqlari (adirlar bo‘ylab);
- Hisorak - Yakkaxona - Mingko‘char qishloqlari (soylar va adirlar bo‘ylab);
- Hisorak - Tamshush - Sarchashma qishloqlari (“turistik uchburchak”).
- Xiyobon - Chag‘atoy - Turon qishloqlari (Qizildaryosi bo‘ylab);
- Samoq - Nov - Haydarbuloq qishloqlari (Qizildaryosi bo‘ylab);
- Tatar - Zarmas - Vori qishloqlari (tog‘ va tog‘oldi bo‘ylab).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi «Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-376-sonli qarorining 13-bandida berilgan topshiriqqa muvofiq “Maydanak baland tog” turistik

markazi hududidagi planitarium, observatoriya, astronomik muzey va atrofni kuzatuv maydonchasini zamonaviy loyiha yechimlari asosida ta'mirlash-tiklash vazifasi berilgandi. Natijada amalga oshiriladigan loyiha doirasida observatoriya tutash 58,6 gektar maydon planetariy, kuzatuv maydonchasi va astro-muzey, do'konlar, avtoturargoh, vertolyot maydonchasi, restoran va kafelar, landshaft bog', galaktika maketi hamda bolalar maydonchasi, mehmonxona majmuasi, geogumbazlar ko'rinishidagi glemping uchun alohida yer maydonlar, kemping, sog'lomlashtirish markazi, chanada uchish, tubing va tog' liftlaridan iborat faol dam olish majmuasi qurish va foydalanish uchun yo'naltirildi. Qo'shimcha xizmat ko'rsatish majmualari va dam olish maskanlarini sog'lomlashtirish sanatoriysi, umumiy ovqatlanish va boshqa turistik ahamiyatga ega ob'ektlar barpo etishni nazarda tutuvchi master loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha har qanday darajadagi investorlar uchun mo'ljallangan. Markazga nafaqat ilm-fan va koinotga qiziquvchilar, balki ochiq tabiatda faol dam olishni yaxshi ko'radigan mahalliy va xorijlik sayyohlar kelishi uchun zamonaviy infratuzilmalar kurish imkoniyati yaratildi.

Ushbu imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda Qashqadaryo viloyatiga joriy yilning to'qqiz oyida 1 million 700 ming mahalliy va 460 ming xorijiy sayyohlar kelishgan. Ya'ni, ichki turizm hajmidan kelib chiqib, ushbu loyihaning yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan qarorga binoan, Shahrisabz va Maydanak baland tog' turistik markazlarini rivojlantirish va boshqarish uchun davlat muassasasi shaklida Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti tashkil etildi. Qarorga asosan Shahrisabz va Maydanak baland tog' turistik markazining hududiy chegaralari ham tasdiqlandi (1-rasmga qarang) [13].

Ma'lumki, buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek bundan necha asrlar oldin astronomiya ilmiga ulkan hissa qo'shib, maxsus rasadxona qurdirib, 1018 ta yulduzning joylashuv o'rnini aniqlab sohaga olamshumul yangiliklarni kiritgan. O'rta Osiyodagi eng katta, bir yarim metrlik teleskopga ega dunyoga mashhur osmon ilmini o'rganadigan rasadxonalardan biri, Maydanak observatoriya innovatsion ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Maydanak balandtog' rasadxonasi hududi turistik master rejasi

Rasadxonaga o'rnatilgan teleskoplar ko'zgularining diametri bir yarimni tashkil qiladi. Ko'zglasining diametri 60 sm dan bo'lgan 4 ta, 50 sm dan bo'lgan 3 ta teleskoplar ham o'rnatilgan [12]. Rasadxonada koinotning eng uzoq, chekkalarida joylashgan noyob obyektlar-gravitatsion linzalar, kvazarlar va faol yadroli galaktikalarni tadqiq etish bo'yicha izlanishlar olib boriladi. Yilning 365 kuni davo-

mida fazosi deyarli ochiq va osmoni juda tiniq bo'ladigan mo'jizakor Maydanak observatoriya bugun dunyo astronomiyasi rivojida muhim rol o'ynamoqda. Shimoliy yarim sharda joylashgan ushbu eng yaxshi rasadxonalardan birida 80 dan ortiq asteroidlar, to'rtta kometa va yangi kichik sayyora kashf qilingan. Kichik sayyoralaridan biriga "Samarqand" deb nomlangan va sayyoralarning xalqaro katalogiga kiritilgan. U o'zbek astronomlari tomonidan 2010-yilning iyul oyida kashf etilgan.

Maydanak balandligidan 385 ming kilometr masofadan Oy yuzida joylashgan bir kilometr kattaligidagi landshaft detallarini ko'rish mumkin. Teleskop orbital stansiyaga qaratilganda esa, kattaligi bir metr bo'lgan ob'ektlarni, hatto astronomiyaning ochiq kosmosda ishlash uchun stansiyadan chiqib ketayotganini ko'rish mumkin. Maydanak astronomik rasadxonasi tungi ekskursiyalarni taklif etadi. Inson ko'zi yetib bo'lmaydigan burjlarni o'rganish, Somon yo'li bo'ylab sayr qilish, oqimli kosmik landshaftlardan va Quyosh tizimining barcha sayyorolari haqida fikr yuritishdan zavqlanadi hamda ular teleskoplar orqali juda yaqin ko'rinadi. Maydanak teleskoplarining kuchli tomoni eng uzoqdagi mitti sayyora Pluton va noyob "Enshteyn xochi"ning hayratlanarli ko'rinishini taqdim etadi. Agar siz ekoturizm, ilm-fan va koinotga qiziqsangiz, tog'li muhitda joylashgan ushbu ajoyib manzilga tashrif buyurishni tavsiya etamiz.

Qashqadaryo havzasining shimoli, shimoli-sharqi hamda janubi-sharqni tog' va tog'oldi hududlari tashkil etadi. Vohalanki, tog' va tog'oldi hududlari ekoturizmida o'ziga xos jozibadorlikka ega [6]. Shu sababli Qashqadaryo havzasining tog'lik qismida gipsometrik balandligi, rel'efning genezisi va parchalanish darajasiga ko'ra landshaftlari quyidagi kichik sinflarga ajratish imkon berdi: 1) tog'oldi adirlar va past tog'larning landshaftlari; 2) o'rtacha balandlikdagi tog' landshaftlari; 3) baland tog' landshaftlari. Shuningdek, tog'oldi adirlari va past tog' landshaftlari kichik sinfda o'rtacha quruq tipik bo'z tuproqlaridagi tog' chalacho'l landshaftlari zonal tipini ajratishga imkon beradi [2].

"Maydanak" turistik-rekreatsion zonasi Hisor tog'ining janubiy g'arbiy tarmog'ida joylashgan. Bu hudud asosiy suvayirg'ich vazifasini bajaradi. Maydanak tog'i uzoq geologik tarixga ega. Bundan 50-55 mln yil oldin dengizning chekinishi natijasida ohaktoshlar, mollyuskalar, marjonlar va har xil chig'anoqsimonlarni qoldig'idan ohaktosh yotqiziqlar, berk suv havzalarida esa tosh tuzi, osh tuzi va gipslar tarkib topgan [9]. Masalan, Hisor tizmalarining ulug'vor manzaralari bilan tanishish, chuqurligi 6 metr bo'lgan g'or labirintlariga o'xshash tuz konlari, qo'l mehnati yordamida yer qaridan shaxta usulida tuz qazib olinishiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Shu bilan birgalikda Maydanak tog'larida tuz bilan davolash maskanlari paydo bo'lmoqda. Tuz bilan davolash tibbiyotda galoterapiya deb atlatadi. Davolash usuli Qamashi tumanining Kon qishlog'idagi tabiiy tuz g'orlarida mavjud. Ushbu g'orlarda Xo'jaikon tajribasini o'rgangan holda tibbiy sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish va Maydanak dam olish maskanida sun'iy tuz uylar qurish imkonini beradi hamda insonlarda uchraydigan ko'plab yurak-qon tomir va asab tizimi kasalliklarni davolashda foydalidir [12]. Bundan tashqari, Maydanak observatoriya Fanlar akademiyasining faxri bo'lib, o'zining noyob astroiklimi bilan jahonning eng yetakchi beshta observatoriyaalaridan biridir. Qayd

etilishicha, bu joyda olib borilayotgan tadqiqotlar har yili dunyoning eng nufuzli ilmiy nashrlarida chop etilib, dunyo olimlarini qiziqishlarini ortirmoqda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimku, Shahrisabz va Maydanak baland togʻ turistik markazining ekoturistik resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish borasidagi maqsad va vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, muayyan hududlar yashash uchun yaxshi qurilgan binolarga ega zonalarini, gidrotexnik va injenerlik qurilish, transport magistrallari, boshqaruv organlari hamda xizmat koʻrsatuvchi subʼektlarni oʻz ichiga olgan tabiiy va madaniy majmualarga ega boʻlishi lozim.

Chunki, ekoturistik resurslardan oqilona foydalanish, koʻrsatilayotgan xizmat turlarini koʻpaytirish va sifatini zamon talablariga moslashtirish, foydalanilmayotgan yangi turistik imkoniyatlarni ishga solish boʻyicha vazifalar belgilanishi zarur. Shahrisabz va Maydanak baland togʻ turistik markazining musaffo havosi, bebaho tabiati, har xil kasalliklarni davolovchi shifobaxsh mineral manbalar, iqlim xususiyati va sport-sogʻlomlashtirish joylari ekoturistik imkoniyatlarni yaratishda qulay sanaladi. Havzaning tabiiy sharoiti, ichki suvlari, iqlim va oʻsimlik dunyosining oʻziga xosligi koʻplab dam olish zonalarini, sogʻlomlashtirish oromgohlari qurishga sharoit yaratadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. / Yoshlar ovozi. 2018- yil. 29-dekabr. № 148. (16305).
2. Abdullayev S.I., Usmanova R. Qashqadaryo landshaftlarini tasnif qilishning ayrim masalalari // Janubiy Oʻzbekiston tabiat manbalaridan oqilona foydalanish masalalari. -T.: 1997. 23-28-b.
3. Badalov Oʻ.B. Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari. FarDU ilmiy xabarlar. №6, 2023. 30-34-b.
4. Badalov Oʻ.B., Yarashev Q.S. Omonqoʻtonsoyning rekreatsiya resurslari va ulardan foydalanish masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Namangan: 2014. 157-158-b.
5. Jumayev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm - rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish. Geografiyada falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya -Samarqand, 2022. yil.
6. Usmanova R. Landshaftlarni rekreatsiya maqsadida baholash (Qashqadaryo viloyati misolida). g.f.n. dissert. avtoreferati. -T.: 2002. 23-b.
7. Yarashev Q., Yusupov B. Tabiiy muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizmni rivojlantirish masalalari (Hisor davlat qoʻriqxonasi misolida) // OʻzMU xabarlar, 3/2 -T.: 2022. 358-361-b.
8. Yarashev Q.S., Yusupov B. Qashqadaryo havzasi togʻ va togʻoldi ekoturizmidagi imkoniyatlar. // Geografiya fani va raqamli iqtisodiyot muammo va istiqbollar mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Namangan: 2023. 339-344-b.
9. Yarashev Q.S. Janubiy Oʻzbekiston daryo havzalari landshaftlarining funksional-dinamik bogʻliqligi hamda ularni landshaft-ekologik rayonlashtirish. Geografiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –Samarqand: 2022. 30-b.
10. Yusupov B.B. Ekoturizm atrof muhitni muhofazalash va barqaror rivojlantirish omili // «Zamonaviy geografik tadqiqotlar nazariya, amaliyot, innovatsiya». Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Samarqand: 2023.
11. Yusupov B. Qashqadaryo havzasi togʻ va togʻoldi landshaftlarida ekoturizmni rivojlantirishning ayrim masalalari // Oʻzbekiston zamini, №2. -T.: 2024. 90-b.
12. Yarashev Q.S., Yusupov B.B. Prospects for the development of tourism villages in the Kashkadarya region. American Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume 15, April, 2023.
13. Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi axborot xizmati boʻlimi.

REZYUME. Maqola Shahrisabz va Maydanak baland togʻ turistik markazining ekoturistik imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish masalalariga bagʻshlangan. Asosiy eʼtibor havzaning togʻ va togʻoldi hududlarida turizmning istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена экотуристическому потенциалу высокогорных туристических центров Шахрисабза и Майданака и его эффективному использованию. Основное внимание уделено развитию перспективных направлений туризма в горных и предгорных районах бассейна.

SUMMARY. The article is devoted to the ecotourism potential of the Shakhrisabz and Maidanak high-mountain tourist centers and their effective use. The main attention is paid to the development of promising tourism sectors in the mountainous and foothill regions of the basin.